

UMUMIY TURKIY ALFAVIT BO'YICHA TAKLIFLAR VA O'RTABITIK YOZUV TIZIMI

Karimov Baxtiyor Raxmanovich,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

yetakchi ilmiy xodimi, falsafa fanlari doktori, professor,

karimov.bahtiyor@yahoo.com +998935655751

Turkiy davlatlar tashkiloti tashkil qilgan Umumiy turkiy alfavit yaratish bo'yicha komissiyasi tomonidan taqdim qilingan loyiha **(1-Jadval)** asosan ma'qul, lekin ba'zi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishni taklif qilamiz:

1) Turkiy tillarning har bir fonemasiga lotin alfaviti asosida bitta grafema kiritishni taklif qilamiz. Hozirgi loyihada bitta [æ] fonemasiga ikki xarf – (Ə ə) va (Ä ä) kiritilishi rejalashtirilmoqda. Umumiy turkiy alfavitdagi 34ta fonemaga har biriga bittadan grafema to'g'ri kelmasa, ya'ni fonemalar va grafemalar orasida izomorfizm, ya'ni birga bir mos kelish mavjud bo'lmasa, turkiy tillarning axborot resurslarini raqamlashtirish jarayonida avtomatik tarzda bexato transliteratsiya va bexato transkripsiyaga qilish imkoni bo'lmaydi va barcha matnlarni inson qo'shimcha tekshirib chiqishi zarurati paydo bo'ladi.

2) Loyihada o'zbek tilida mavjud bo'lgan [ʋ] fonemasiga grafema mavjud bo'lishi rejalashtirilmagan. Ushbu [ʋ] fonemasi o'zbek tilining “Ota, Ота”, (“Ota yurt, Ота юрт”) va “Ona, Она” (“Ona Vatan, Она Батаһ”) kabi fundamental so'zlarida ishlatiladi va bu so'zlar boshqa turkiy tillarda “Ata, Ата” va “Ana, Аһа” shaklida ishlatiladi. Bu so'zlarning to'g'ri talaffuzi uchun umumiy turkiy alifbo fonemalari tizimiga [ʋ] fonemasini qo'shishni va uni (Ä ä) grafemasi bilan ifodalashni taklif qilamiz. Shuning natijasida, umumiy turkiy alifbodagi grafemalar (va fonemalar) soni 34 tadan 35 tagacha ko'payadi. Shunday qilinsa Umumiy turkiy alfavitda 35ta fonemaning har biriga bittadan grafema to'g'ri keladigan bo'ladi, ya'ni fonemalar va

grafemalar orasida izomorfizm, ya'ni birga bir mos kelish bo'ladi. Ushbu izomorfizm turkiy tillarning axborot resurslarini raqamlashtirish jarayonida bexato transliteratsiya va bexato transkripsiyaga qilishga imkon beradi va shu nuqtai nazardan fundamental ahamiyatga ega. Umumiy turkiy alfaviti tizimida ushbu (Ä ä) grafemasi (A a) grafemasidan so'ng joylashtirilishini taklif qilamiz.

3) Yuqoridagi ikki taklif qabul qilinsa Umumiy turkiy alfaviti 35 grafemadan va ularga izomorf mos keladigan fonemalardan iborat bo'ladi. Lotin alfaviti asosidagi shunday izomorfizmi mavjud bo'lgan Umumiy turkiy alfaviti o'rtabitik yozuv tizimi shaklida davom ettirishni taklif qilamiz. O'rtabitik yozuv tizimida 35 fonema uchun 35 tadan izomorf mos keladigan grafemalar to'rt yozuv tizimi asosida tuziladi: 1) lotin alfaviti asosida; 2) kirill alfaviti asosida; 3) arab alfaviti asosida; 4) o'rxun-enasoy yozuvi asosida **(2-Jadval)**.

Hozirgi zamonda turkiy tillarda tuzilgan matnlarning mutloq ko'pchiligi shu to'rt asosdagi alfavitlarning birida mavjud va o'rtabitik yozuv tizimida komp'yuter transliteratsiya va transkripsiya dasturlari vositasida matnning qolgan uch boshqa asosdagi alfavitlardagi variantlari avtomatik transliteratsiya orqali bexato shakllantiriladi va ayni vaqtda avtomatik tarzda bexato transkripsiyasi ham shakllantiriladi. Turkiy tilli inson matnni qaysi alfavitda o'qishni istasa o'sha alfavitda o'qishga imkoni bo'ladi va u matnni o'zining ko'nikmalariga mos alfavitda o'qiydi. Turkiy tillarning umumiy 35 fonemasidan har bir turkiy millat tilida muayyan miqdordagi va tarkibdagi fonemalar tizimi bo'ladi. Ushbu turkiy til o'z alfavitida shu fonemalarga tegishli grafemalardan foydalanadi. Har bir turkiy millatda o'zining ustuvor alfaviti bo'ladi va ushbu alfavitda ta'lim tizimi tashkil qilinadi, kitoblar nashr qilinadi, ommaviy axborot vositalari ishlaydi, ish yuritish olib boriladi. Barcha ushbu ma'lumotlar raqamlashtirish natijasida elektron fayllar shaklida ham mavjud bo'ladi va avtomatik tarzda tegishli boshqa alfavitlarda ham shakllantirilishi mumkin bo'ladi. Ayni vaqtda Turkiy tamaddunning butun merosi va axborot resursi ajdodlarimiz o'zi yaratgan o'rxun-enasoy yozuvi asosidagi alfavitda ham mavjud bo'ladi.

1-jadval

№	Lotin alfaviti asosidagi grafemalar	Fonema-larning xalqaro transkrip-tsiyasi
1	Aa	[a]
2	B b	[b]
3	C c	[dʒ]
4	Ç ç	[tʃ]
5	D d	[d]
6	E e	[e]
7	Ə ə, Ää	[æ]
8	F f	[f]
9	G g	[g]
10	Ğ ğ	[ɣ]
11	H h	[h]
12	X x	[χ]
13	I ı	[ɯ]
14	İ i	[i]
15	J j	[ʒ]
16	K k	[k]

17	Q q	[q]
18	L l	[l]
19	M m	[m]
20	N n	[n]
21	Ñ ñ	[ɲ]
22	O o	[o]
23	Ö ö	[ø]
24	P p	[p]
25	R r	[r]
26	S s	[s]
27	Ş ş	[ʃ]
28	T t	[t]
29	U u	[u]
30	Ū ū	[ʊ]
31	Ü ü	[y]
32	V v	[v]
33	Y y	[j]
34	Z z	[z]

2-Jadval

№	Lotin alfaviti asosidagi grafemalar	Fonema- larning xalqaro transkrip- tsiyasi	Arab alfaviti asosidagi grafemala r	Kirill alfaviti asosidagi grafemalar	O'rxun- yenisey alfaviti asosidagi grafemalar
1	Aa	[a]	ا	Аа	𐰀
2	Ää	[ʌ]	آ	Ää	𐰁
3	B b	[b]	ب	Б б	𐰂
4	C c	[dʒ]	ج	Ж ж	𐰃
5	Ç ç	[tʃ]	چ	Ч ч	𐰄
6	D d	[d]	د	Д д	𐰅
7	E e	[e]	إ	Е е	𐰆
8	Ə ə	[æ]	أ	Ә ә	𐰇
9	F f	[f]	ف	Ф ф	𐰈
10	G g	[g]	گ	Г г	𐰉
11	Ğ ğ	[ɣ]	غ	Ғ ғ	𐰊
12	H h	[h]	ھ	Һ һ	𐰋
13	X x	[x]	خ	Х х	𐰌
14	I i	[ɯ]	اي	Ы ы	𐰍
15	İ i	[i]	إي	И и	𐰎

16	J j	[ʒ]	ژ	Ж ж	Ɑ
17	K k	[k]	ك	К к	Ƶ
18	Q q	[q]	ق	Қ қ	ⱪ
19	L l	[l]	ل	Л л	Ʒ
20	M m	[m]	م	М м	Ɱ
21	N n	[n]	ن	Н н	)
22	Ñ ñ	[ɲ]	ڻ	Ң ң	ƶ
23	O o	[o]	ئو	О о	Ʒ
24	Ö ö	[ø]	ئو	Ө ө	Ʒ
25	P p	[p]	پ	П п	1
26	R r	[r]	ر	Р р	Ʒ
27	S s	[s]	س	С с	l
28	Ş ş	[ʃ]	ش	Ш ш	Ʒ
29	T t	[t]	ت	Т т	h
30	U u	[u]	ئو	У у	Ʒ
31	Ū ū	[ʊ]	او	Ү ү	Ʒ
32	Ü ü	[y]	أو	Ү ү	Ʒ
33	V v	[v]	و	В в	Ʒ
34	Y y	[j]	ي	Й й	Ʒ

35	Z z	[z]	ز	3 3	⌘
36	0		0	0	0
37	1		1	1	1
38	2		2	2	2
39	3		3	3	3
40	4		4	4	4
41	5		5	5	5
42	6		6	6	6
43	7		7	7	7
44	8		8	8	8
45	9		9	9	9
46	`		`	`	`
47	!		!	!	!
48	@		@	@	@
49	#		#	#	#
50	\$		\$	\$	\$
51	%		%	%	%
52	^		^	^	^
53	&		&	&	&
54	*		*	*	*
55	(		(	(	[
56	)		)	)	]
57	—		—	—	—
58	-		-	-	-
59	+		+	+	+

60	{		{	{	{
61	}		}	}	}
62	[		[	[	[[
63	]		]	]	]]
64	:		:	:	:
65	;		;	;	;
66	“		“	“	“
67	‘		‘	‘	‘
68	<		<	<	<
69	>		>	>	>
70	/		/	/	/
71	\		\	\	\
72	,		,	,	,